



ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI QADIMIY ME’MORIY AN’ANALARIMIZ VA MILLIY BEZAKLAR UYG‘UNLIGIDA BARPO ETILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-oktabr kuni Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, bu yerdagi ekspozitsiyalar orqali xalqimizning boy tarixiy va ma’naviy merosini keng namoyish etishga qaratilgan ishlar bilan tanishdi.



Mazkur ulkan va noyob loyiha davlat rahbarining 2017-yil 23-iyundagi qaroriga asosan boshlangan. Ko‘p o‘tmay, 2018-yilgi Ramazon hayiti kuni uning poydevoriga tamal toshi qo‘yilgan edi. O‘tgan davrda bu yerda katta hajmdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Markaz qadimiy me’moriy an’alarimiz va milliy bezaklar uyg‘unligida barpo etildi. Inshootning to‘rt tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar, o‘rtada esa 65 metrli milliy uslubdagi gumbaz qad rostlagan.

Inshootning markaziy qismida Qur’oni karim zali joylashgan. Bu yerda musulmon olamining noyob ma’naviy durdonasi sanalgan qadimiy Usmon Mus’hafi namoyish etiladi. Shuningdek, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, temuriylar va boshqa sulolalar davriga oid muqaddas kitob nusxalari, ularning eski o‘zbek tilidagi tarjimalari, shu bilan birga, jahondagi eng nodir qo‘lyozma Qur’onlardan namunalar ham joy oladi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan chet ellarda saqlanayotgan tariximiz va ulug‘ allomalarimiz merosi bilan

bog‘liq qimmatli manbalar va ashyolar Vatanimizga qaytarildi.

Markaz tarkibida 460 o‘rinli anjumanlar zali ham qurib bitkazilgan bo‘lib, xalqaro miqyosdagi uchrashuv va ilmiy anjumanlarni o‘tkazish uchun barcha zamonaviy shart-sharoitlar yaratilgan.

Majmuada “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchii Renessans”, “Ikkinchi Renessans”, “O‘zbekiston XX asrda” hamda “Yangi O‘zbekiston — yangi Renessans” bo‘limlari tashkil etilgan. Bu yerda buyuk allomalarimiz faoliyati haqida ma’lumotlar, xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Bahouddin Naqshband va boshqa ulamolar merosi ham keng yoritilgan.

Shuningdek, tariximizda ilmu ma’rifat va ma’naviyat homiysi bo‘lgan Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar Otin kabi mo‘tabar zotlar faoliyati ham alohida ekspozitsiya sifatida namoyish etilgan.

Davlatimiz rahbari doimo markazning ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishini samarali tashkil etish, uning mazmun-mohiyatini boyitib borish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Bu borada O‘zbekiston

xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy nomidagi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida axborot berildi.

Tashrif chog‘ida Prezidentimiz zallarda amalga oshirilayotgan pardozlash va jihozlash ishlarini ko‘zdan kechirdi, bo‘limlar va ko‘rgazmalarning mazmun-mohiyati, qo‘llanilayotgan interfaol texnologiyalar bilan yaqindan tanishdi.

Davlatimiz rahbari eksponatlarni mahalliy va xorijiy tashrif buyuruvchilarga har tomonlama qiziqarli hamda tushunarli qilib taqdim etish muhimligini ta’kidladi. Shu maqsadda markazda faoliyat yuritadigan mutaxassis va gidlarning sonini ko‘paytirish, ularni maxsus dasturlar asosida tayyorlash zarurligiga e’tibor qaratildi.

Markaz faoliyatini mazmunan yanada boyitish, ekspozitsiyalar orqali xalqimiz ma’naviy va ilmiy merosini to‘liq namoyon etish bo‘yicha qator tavsilyalar berildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

DAVLAT TILINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA OID QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanish, ta’lim tashkilotlarida o‘zbek tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish, uning sofligini saqlash va muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini kengaytirish maqsadida **qaror qilaman:**

I. Asosiy maqsadlar

1. Quyidagilar davlat tilini yanada rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

a) mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanishga erishish;

b) ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

d) davlat tilining sofligini saqlash va uning lug‘at boyligini muntazam oshirib borish;

e) davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, bu borada sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

f) davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

g) mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning davlat tilini o‘rganishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

► Davomi 2-betda

Odri AZULE:

“SAMARQANDDA BIZ TA’LIM, MADANIYAT VA FAN TILLARIDA GAPLASHAMIZ”

UNESCO BOSH DIREKTORI “DUNYO” AXBOROT AGENTLIGI MUHBIRI SAVOLLARIGA JAVOB BERDI

Shu yilning 31-oktabr — 13-noyabr kunlari Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi bo‘lib o‘tadi.

UNESCOning asosiy yig‘ilishi so‘ngi 40 yil ichida birinchi marta Parijdan tashqarida bo‘lib o‘tadi. Ushbu qaror tashkilotning ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohasidagi maqsadlarini ilgari surishda O‘zbekistonning roli ortib borayotganini e’tirof etish va xalqaro hamjamiyat ishonchining tasdig‘idir.

Bunday nufuzli forumning Samarqandda o‘tkazilishi nafaqat O‘zbekistonning UNESCO bilan hamkorligining yuksak darajasi, balki mamlakatning global gumanitar kun tartibini shakllantirishda faol ishtirok etishga intilishining ramzi hamdir.

Ushbu tarixiy voqea oldidan UNESCO Bosh direktori Odri Azule “Dunyo” AA



uchun bergan ekslyuziv intervyusida tashkilot bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi jadal rivojlanib borayotgan hamkorlikni yuqori baholadi.

► Davomi 2-betda

Buyuk o‘zbek yo‘li INSON MANFAATI VA QADRI

YANGI O‘ZBEKISTONNING OLDIGA QO‘YGAN QAT’IY MAQSADI MOHIYATI SHUNDAN IBORAT

Prezidentimizning O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvidagi nutqi menda katta taassurot qoldirdi. Nutqda keltirilgan fikrlar, taklif va tashabbuslar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili yuzasidan mulohaza yuritishga undadi. Chunki bugun ko‘z o‘ngimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar, yangilanishlar, bunyodkorlik jarayoni, obodlik, farovonlik o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmayapti. Buning o‘ziga xos tarixi, bosqichi, jarayoni bor. Hozir esa barchamiz ana shu ishlar, sa’y-harakatlar samarasidan bahramand bo‘lyapmiz. Ya’ni yuqorida keltirganimiz — avvaldan maqsad sifatida qo‘yilgan “hech narsa inson qadrichalik muhim emas”, degan siyosiy tutum amalda natijasini ko‘rsatmoqda. Buni tan olmaslikning iloji yo‘q. Chunki hayot tarzimiz, atrofimizdagi o‘zgarishlar bunga yo‘l qo‘ymaydi.



Oqilona siyosat muammolar yechimi bo‘ldi

Fikrimni bir misol bilan boshlasam. Prezidentimiz mazkur uchrashuvdan bir kun avval Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport loyihasi taqdimoti bilan tanishib, mazkur ulkan majmua qurilishi boshlanishiga bag‘ishlangan marosimda ishtirok etdi. Marosimda Saudiya Arabistonidan tashrif buyurgan yirik investor — “ACWA Power”

kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan ham so‘zga chiqib, yurtimizdagi islohotlarga yuqori baho berdi. Xalqaro doirada taniqli yirik sarmoyadorning “Sizlar so‘nggi sakkiz yilda yaqin hamkorlikda amalga oshirgan ishlarni boshqa mamlakatlar asrlar davomida ham bajara olmasligini bugun faqat bu yerda to‘plangan ishtirokchilarga emas, balki butun dunyoga namoyon etdingiz.

► Davomi 3-betda



Yangi O‘zbekiston ruhi

GLOBAL TASHABBUSLAR: JAHON INTEGRATSIYASI BILAN ISLOHOTLAR HAMOHANGLIGI

O‘zbekistonda jahon darajasidagi yo‘l infratuzilmasi barpo etish ko‘p jihatdan Prezidentimiz ilgari surgan global tashabbuslar bilan uyg‘unlashmoqda. Xalqaro hamkorlik va transport-logistika sohalaridagi o‘zgarishlar yangi O‘zbekiston imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Davlatimiz rahbarining islohotlari yuzlab xalqlarning taraqqiyoti va madaniy rivojlanishida ulkan xizmat qilgan Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklash tashabbusi sifatida mamlakatimizning Sharq va G‘arb, Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy xab sifatidagi mavqeini tiklashda muhim o‘rin tutadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekistonning jug‘rofiy nuqtayi nazardan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy

aloqalar o‘rnatgani mahalliy xalqning iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

► Davomi 4-betda



21-oktabr
O‘zbek tili bayrami kuni

QAYDA
BO‘LMAY
RUHIMDASAN

5



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R IDAVLAT TILINI
YANADA RIVOJLANTIRISHGA
OID QO‘SHIMCHA
CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

II. Respublikada davlat tili
imkoniyatlaridan samarali
foydalanishga erishish

2. 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026--yillarda amalga oshirish dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2026-yil 1-yanvardan boshlab respublika darajasidagi davlat organlari va xo‘jalik birlashmalarining markaziy apparatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklarida boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida rahbarning ma‘naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilsin.

4. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2026-yildan boshlab:

a) ta‘lim qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari uchun o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha darsliklarning davriylik asosida yangi avlodini yaratsin;

b) maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha pedagoglar uchun o‘quv qo‘llamalarini ishlab chiqsin;

d) maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar uchun “Mening ilk izohli lug‘atcham” rasmlı lug‘at kitobini yaratsin;

e) bolalarga o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha zamonaviy animatsion video va audio mahsulotlar ishlab chiqilishini tashkil etsin.

5. Fanlar akademiyasi:

a) 2026 yil 1-iyunga qadar ko‘p jildli “O‘zbekiston milliy qomusi”ni elektron shaklda tayyorlash va e‘lon qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritisin;

b) 2026-yil 1-dekabrda qadar “Ona tili. Qomus” kitobining nashrga tayyorlanishi va chop etilishini ta‘minlasin.

6. Davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash borasida:

a) Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2026-yil 1-mayga qadar o‘zbek tilini sun‘iy intellekt yordamida qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladigan platforma ishlab chiqish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritisin;

b) Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2025-yil 1-dekabrda qadar:

i) yangi qabul qilinayotgan atamalar bo‘yicha jamoatchilik muhokamasida bildirilgan taklif, fikr va tavsiyalarni qayd etib boruvchi;

ii) tasdiqlangan yangi so‘z va atamalarni o‘zida aks ettiradigan elektron reyestرنi yurituvchi;

iii) o‘zbek tilida chop etilgan sohaviy, izohli va imlo lug‘atlarini o‘zida jamlash va foydalanish uchun mo‘ljallangan elektron platformani yaratish bo‘yicha ilmiy loyihaga tanlov e‘lon qilsin.

III. Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish hamda ilm-fan tili sifatida nufuzini oshirish

7. Har yili oktabr oyida:

a) Fanlar akademiyasi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi o‘zbek tilining dunyo tillari o‘rtasida tutgan o‘rni va xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani;

b) Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan chet ellik talabalar o‘rtasida:

i) o‘zbek tili bo‘yicha respublika olimpiadasini;

ii) “O‘zbek tili — qalbim tarjimoni” ko‘rik-tanlovini yuqori saviyada tashkil etsin;

d) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan eng yaxshi ilmiy, ijodiy, amaliy

ishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Jonajon o‘zbek tilim” tanlovini;

e) Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari vazirlik va idoralar bilan birgalikda umummilliy diktant loyihasini;

f) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda vazirlik va idoralar 21-oktabr O‘zbek tili bayrami kuniga bag‘ishlangan madaniy-ma‘rifiy, adabiy tadbirlar, yangi kitoblar taqdimotlarini;

g) Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi:

i) umumta‘lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida o‘zbek tili mavzusida insholar tanlovini;

ii) o‘zbek tili fani o‘qituvchilari o‘rtasida “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” respublika tanlovini o‘tkazsin.

8. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “Vatandoshlar” jamoat fondi bilan birgalikda har yili Alisher Navoiy nomidagi xalqaro o‘zbek tili olimpiadasini o‘tkazib borsin. Bunda olimpiada g‘oliblarini respublika oliy ta‘lim muassasalarining “filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili va adabiyoti” ta‘lim yo‘nalishiga umumiy qabul kvotasidan tashqari davlat granti asosida o‘qishga qabul qilish yo‘lga qo‘yilsin.

9. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda uning hududiy bo‘linmalarida mamlakatimizdagi oliy ta‘lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet ellik talabalarni ular o‘qiyotgan oliy ta‘lim tashkilotlari mablag‘lari hisobidan o‘zbek tiliga bepul o‘qitish kurslarini tashkil etsin.

10. Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mita:

a) 2026-yil davomida o‘z mablag‘lari hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan milliy madaniy markazlar vakillari uchun o‘zbek tiliga o‘qitish kurslarini kengaytirish;

b) Tashqi ishlar vazirligi, “Vatandoshlar” jamoat fondi va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda “Vatandoshlar” jamoat fondi mablag‘lari hisobidan xorijiy davlatlardagi o‘zbek diaspora tashkilotlari huzurida vatandoshlarning farzandlariga o‘zbek tilini o‘rgatishga ixtisoslashgan o‘quv markazlari tashkil etishga ko‘maklashish, ularni zarur o‘quv qo‘llamalar, darsliklar va adabiyotlar bilan ta‘minlash choralarini ko‘rsin.

11. Yoshlar ishlari agentligi uch oy muddatda o‘zbek tilini boshqa millat va elatlar vakillari, xorijdagi vatandoshlarning farzandlarini, o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolarini o‘qitish maqsadida “Ibrat farzandlari” loyihasi bilan hamkorlikda alohida sun‘iy intellekt yordamida o‘zbek tilini o‘rgatish modulini ishga tushirsin. Bunda o‘zbek modulini yaratish uchun xarajatlar Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan amalga oshirilishi nazarda tutilsin.

IV. Qaror ijrosini tashkil etish, ta‘minlash va nazorat

12. Adliya vazirligi uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritisin.

13. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va shaxsiy javobgar etib vazirliklar va idoralar rahbarlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

14. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.



Boshlanishi 1-betda

U UNESCO vakolatining asosiy yo‘nalishi bo‘lgan madaniy merosni asrab-avaylash, ta‘limni rivojlantirish, ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlarning jamiyatdagi rolini kuchaytirish borasida erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarni alohida ta‘kidladi.

— Bosh direktor xonim, bu yil UNESCO o‘zining 80-yilligini nishonlamoqda. Tashkilot tarixidan qanday muhim saboqlarni olish mumkin deb o‘ylaysiz va nega uning mandati bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda?

— Ko‘p qirralilikka tobora ko‘proq e‘tibor qaratilayotgan bugungi dunyoda bu paradoksal ravishda har qachongidan ham zarur bo‘lib bormoqda. Global muammolar — iqlim o‘zgarishlari va mojarolardan tortib, yangi texnologiyalardagi o‘zgarishlargacha hech bir davlat yolg‘iz harakat qila olmasligini eslatib turadi. Bunday paytda odamlar ayniqsa zaif bo‘lib qoladi. Va biz hamkorlik, hamjihatlik orqali ularni noaniqlikdan ishonchli tarzda o‘tish, yanada barqaror va tinch kelajakni qurish uchun zarur bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar bilan ruhlantirishimiz mumkin.

UNESCO 80-yil davomida sifatli ta‘limni ilgari surish, madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va axborotdan foydalanishni ta‘minlash kabi vazifalar ajralmas bo‘lib qolayotganini isbotlab kelmog‘da. 1945-yildan buyon dunyo tubdan o‘zgardi, ammo UNESCOni tashkil etishga ilhom bergan qadriyatlar — muloqot, o‘zaro hurmat va xalqaro hamjihatlik murakkab

“Samarqandning madaniy boyligi haqiqatan ham ulkan: Registon maydonining Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan yodgorliklaridan tortib, fan, san‘at va adabiyot markazi sifatidagi tarixiy roligacha Samarqand turli madaniy ta‘sirlarning uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan.

global voqelikni yo‘lga qo‘yishimizga yordam beradigan kompas bo‘lib qolmoqda.

— O‘zgaruvchan xalqaro muhitda UNESCOning muloqot, o‘zaro tushunish va madaniy xilma-xillikni rivojlantirishdagi rolini qanday baholaysiz?

— UNESCO o‘z vakolatining barcha sohalarida — ta‘lim, madaniyat, ilm-fan va axborotda xilma-xillikni odamlar, jamoalar va mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni kuchaytiruvchi manba sifatida ko‘radi. Biz odamlarda farqlarga qaramay, hurmat bilan munosabatda bo‘lishga imkon beradigan qadriyatlar, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga intilamiz.

UNESCO o‘z dasturlari va madaniy konvensiyalari orqali umumiy merosni tushunishga yordam beradi va chegaralar bo‘ylab muloqotni rivojlantiradi. UNESCOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan ko‘p millatli obyektlar soni ortib borayotgani bu jarayonni yaqqol

aks ettiradi. Masalan, 2018-yildan buyon 67 ta ko‘p millatli element nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi.

O‘zbekiston bu umumiy ishimizga faol hissa qo‘shmoqda. Masalan, Ipak yo‘lining Zarafshon — Qoraqum yo‘lagi UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi, shuningdek, sakkizta madaniy elementning boshqa davlatlar bilan birgalikda e‘tirof etilishi merosning madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘priikka aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston xalqaro maydonda o‘z ishtirokini sezilarli darajada mustahkamladi. Mamlakatda ro‘y berayotgan yangilanishlar hamda ularning mintaq va jahon hamjamiyati uchun ahamiyati xususidagi fikrlaringiz ham biz uchun muhim.

— O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi faolligi ortib borayotgani mamlakatning muloqot va hamkorlikka intilishidan dalolat beradi. Bu ko‘p tomonlama munosabatlarni mustahkamlash zarur bo‘lgan bir paytda, ayniqsa, muhimdir. Bu sa‘y-harakatlar nafaqat mintaqaviy birdamlikka sadoqatni, balki xalqaro hamkorlik muhimligini anglashni ham namoyish etadi.

Turizm barqaror taraqqiyotni ta‘minlashning muhim omiliga aylandi. 2024-yilda mamlakatimizga 8 milliondan ortiq xorijlik sayyoh keldi va bu O‘zbekistonning boy madaniy



2018-yildan buyon UNESCO sun‘iy intellekt sohasida axloqiy me‘yorlarni ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro sa‘y-harakatlarni boshqarib kelmog‘da, natijada 2021-yilda ushbu sohadagi birinchi xalqaro me‘yoriy hujjat qabul qilindi. O‘zbekiston va UNESCO tomonidan sun‘iy intellekt sohasida etikani targ‘ib qilish orqali ilmiy muloqotni rag‘batlantirish maqsadida Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro mukofotning ta‘sis etilishi axloqiy ilm-fan tamoyili uchun muhim ahamiyatga ega.

— Yana bir nechta kuning so‘ng Samarqand birlashgan marta UNESCO Bosh konferensiyasiga mezbonlik qiladi. Ushbu tarixiy voqelik tashkilot uchun qanday ahamiyatga ega?

— Bu haqda 2019-yildagi tashrifim chog‘ida aytgandim: Samarqand — turli madaniyatlar tutashgan chorraha. O‘zbekiston ushbu jahon merosining saqlovchisi hisoblanadi. Shu bois, UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda o‘tkazilishida ham chuqur ramziy ma‘no bor — ayniqsa, u oxirgi marta deyarli 40-yil avval Parijdan tashqarida o‘tkazilganini hisobga olsak.

Bu UNESCOga a‘zo barcha davlatlarni muloqot va hamkorlik ramzi bo‘lgan makonda birlashtirish uchun noyob imkoniyatdir. Konferensiya mamlakatlar tashkilotning yaqin yillardagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradigan va neyrotexnologiyalar bo‘yicha birinchi

qabul qilingan tarixiy qaror bilan yakunlangan hamkorligimiz qanchalik rivojlanib borayotganini alohida qayd etishdan mamnunman.

Madaniyat hamkorligimizning asosi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston UNESCOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyasida faol ishtirok etmoqda. 2024-yilda mamlakatimiz tashabbusi bilan ikki madaniy element — Rubob yasash va ijro etish san‘ati hamda mintaqadagi 13 davlatni birlashtirgan Navro‘z bayramini nishonlash an‘analari Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritildi. O‘sha yili O‘zbekiston Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon konferensiyasiga mezbonlik qildi va bu bilan mamlakat madaniyatga barqaror rivojlanish omili sifatida alohida e‘tibor qaratayotganini yana bir karra tasdiqladi.

Ta‘lim sohasidagi hamkorligimiz kasbiy ta‘limni qo‘llab-quvvatlash, suv resurslarini boshqarish va inkluziv boshqaruvni, xususan, axborotdan foydalanish va media savodxonlikni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. 2022-yil noyabr oyida Toshkentda UNESCOning erta yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta‘lim berish bo‘yicha II Butunjahon konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur forum erta ta‘lim bo‘yicha global kun tartibidagi muhim bosqich bo‘lib, kelgusidagi hamkorlik uchun poydevor yaratdi.

xalqaro hujjatni qabul qiladigan muhim pallada bo‘lib o‘tadi. Ya‘ni UNESCOning Samarqand forumi kelajakka muhim qadam bo‘ladi.

Biz O‘zbekiston Prezidentiga va barcha o‘zbekistonlik hamkorlarimizga ushbu tarixiy voqeani amalga oshirishga ko‘rsatgan ko‘magi, sadoqati, mehmondo‘stligi va qo‘llab-quvvatlagani uchun chuqur minnatdorlik bildiramiz.

— Samarqand yirik xalqaro anjumanlar markaziga aylanib bormoqda. Sizingcha, nima uni global muloqot uchun jozibador va salohiyatli manzil sifatida tanitmoqda?

— Qadimiy Ipak yo‘lining G‘arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyoni tutashtiruvchi chorrahasida joylashgan Samarqand ming yillar davomida tovarlar, g‘oyalar va madaniyatlar almashinuvi uchun uchrashuv joyi bo‘lib xizmat qilgan. Bu uni xalqaro forumlar uchun tabiiy maydonga aylantiradi.

Samarqandning madaniy boyligi haqiqatan ulkan: Registon maydonining Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan yodgorliklaridan tortib, fan, san‘at va adabiyot markazi sifatidagi tarixiy roligacha Samarqand turli madaniy ta‘sirlarning uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan.

Samarqand o‘z tarixi davomida ko‘plab ijodkorlarga ilhom manbai bo‘lib kelgani

va badiiy ruhi bilan mashhur. Bu xilma-xillik va almashinuv uchun ochiq bo‘lgan madaniyatlarning tabiiy chorrahasidir. Bularning barchasi uni muloqotni davom ettirish va hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilashi mumkin bo‘lgan yirik xalqaro forumlar uchun muhim maydonga aylantirmoqda.

— Samarqandda o‘tadigan Bosh konferensiyadan jahon hamjamiyati uchun kerak bo‘lgan asosiy yangiliklar nima deb o‘ylaysiz?

— Bo‘linishlar muloqotga soya solishi mumkin bo‘lgan davrda mazkur anjuman kelajagimiz o‘zaro bog‘liq ekanini eslatib turishi kerak. UNESCO Bosh konferensiyasining xabari aniq bo‘lishi shart: umumiy meros va jamoaviy bilim bu — biz tinchlik va barqaror rivojlanishni barpo etishimiz mumkin bo‘lgan poydevordir. Samarqandda biz ta‘lim, madaniyat va fan tillarida gaplashamiz.

UNESCOning roli aynan moddiy va nomoddiy merosni himoya qilish, ta‘lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

— Bosh kotib xonim, mazmunli suhbat uchun rahmat va Samarqandda bo‘lib o‘tadigan forum ishiga muvaffaqiyat tilaymiz. — Rahmat.

“Dunyo” AA

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 20-oktabr



Buyuk o‘zbek yo‘li

INSON MANFAATI VA QADRI

YANGI O‘ZBEKISTONNING OLDIGA QO‘YGAN QAT’IY MAQSADI MOHIYATI SHUNDAN IBORAT

Qalandar ABDURAHMONOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda

Chindan ham bunday ulkan natijalarga dunyodagi birorta yetakchi shunday qisqa muddatda erishmog‘i juda qiyin. Prezident Janobi Oliyarlari, men avval ham ta’kidlab aytganman: bu darajada katta o‘zgarishlarni amalga oshirgan yetakchilarning ikki nafarini bilaman. Birinchisi — Siz, Janobi Oliyarlari, ikkinchisi esa — Saudiya valiahdi, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Hazrati Oliyalaridir”, degan gaplari men qatori barcha yurtdoshlarimiz ko‘nglida katta g‘urur uyg‘otgani aniq. Negaki samoyador ushbu so‘zlari orqali davlatimiz rahbari siyosatiga, shu bilan birga, yangi O‘zbekiston islohotlariga, tanlagan yo‘liga munosib baho berdi. Yurtimizdagi o‘zgarishlar xalqaro doirada ham e’tirof etilayotgani katta gap, katta sharaf, albatta.

Investor, shuningdek, O‘zbekistonda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar davlatimiz rahbarining o‘z ishiga bo‘lgan buyuk ishonch-e’tiqodi va fidokorona mehnati, vatanimizga cheksiz mehr-muhabbati samarasi ekaniga alohida urg‘u berdi.

Darhaqiqat, bugun mam-lakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar xususida gap ketganda, oxirgi sakkiz yilda qilingan ishlar alohida tilga olinaypti. Bu maqola, kitob, ma’ruza uchun yoki o‘zaro uchrashuv va muloqotlarda aytiladigan shunchaki gap emas. Bu — hayotiy haqiqat. Chunki o‘tgan vaqt ichida yon-atrofimizda shunchalik ko‘p o‘zgarishlar ro‘y berdiki, ularning samarasini barchamiz ko‘rib, bilib turibmiz, hayotimizda, tanimizda his qilyapmiz. Vaholanki, aksariyat yangiliklarni ilgari imkonsiz deb bilganmiz. Biror o‘zgarishga qo‘l ursak, teskari ta’sir ko‘rsatishdagi qo‘rqqanmiz go‘yo. Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruviga kirishgan ilk paytlardayoq siyosiy iroda ko‘rsatib, biror tashabbusni o‘rtaga tashlasa, “nahotki shunday qilish mumkin”, “buning imkoni bormikan”, deya ishonchsizlik bildirganlar ham bo‘ldi.

Jumladan, konvertatsiya masalasi olaylik. Aytish kerakki, ayni shu masala iqtisodiyotimiz rivojiga tushov bo‘layotgan eng asosiy omillardan biri edi. Valyuta cheklavi tadbirkorning erkini jilovlab turardi. Investor beqaror, o‘zgaruvchan va cheklangan valyuta munosabatlari bois, yurtimizga kirishga shoshilmas edi. Tabiiyki, bu iqtisodiyotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatardi. Endi esa holat boshqacha. Bu yo‘ldagi sa’y-harakatlar tufayli sakkiz yilda iqtisodiyotimizga 130 milliard dollar investitsiya kirib keldi, minglab yangi quvvatlar ishga tushirildi, millionlab doimiy ish o‘rinlari yaratildi. Xususiy sektorga keng yo‘l ochilib, chin yurakdan ishlayman degan odamlarga munosib mehnat sharoiti yaratib berilgani tufayli jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetdi.

Paxta yetishtirish ham o‘ta tashvishli jarayon edi. Ayni hozirgi kunlarda, ya’ni paxta hosilini yig‘ib-terish mavsumida kattayu kichik, yoshu qari dalada bo‘lard. Jarayonga, ayniqsa, maktab o‘quvchilari, o‘qituvchilari,

oliyog‘h talabalari, professorlari ommaviy jalb qilinishi o‘qishni ortga surishi bir tomon, iqtisodiyotimizga ta’siri bir tomon edi. Ya’ni paxta yetishtiramiz-u, uni dunyo bozorida xalqaro narxlarga mos sota olmaymiz. Sabab — O‘zbekiston paxtasi xalqaro talablar doirasida emas, bolalar va majburiy mehnat asosida yetishtiriladi... Xullas, xomashyomiz bor, munosib xaridor yo‘q. Xalqaro bozorga kirolmaymiz. Shu ma’noda, paxta biz uchun ortiqcha mashmasha edi. Daromadidan xarajati baland ekin turi edi. Iqtisodiyotimizga, demakki, hayotimizga nafi kam edi paxtaning.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari ushbu masalaga alohida to‘xtaldi. “Bir eslab ko‘ring, bolalar mehnati va majburiy mehnatga to‘liq barham berish uzoq yillar biz uchun eng og‘riqli masala bo‘lib kelgan edi. Faqat kuchli iroda, qat’iy pozitsiyamiz orqali biz bu murakkab muammoni ijobiy hal qildik.

Yangi O‘zbekistonning insonparvarlik tamoyillariga sodiq ekanini ko‘rsatadigan bu o‘zgarish ijtimoiy hayotimizda mutlaqo yangi sahifa ochmoqda. Mamlakatimizning bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha ilg‘or tajribasi Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan namuna sifatida boshqa davlatlarga tavsiya etilgani ham shundan dalolat beradi.

O‘zbek paxtasi dunyodagi ko‘plab nufuzli brend kompaniyalarning “qora ro‘yxati”dan chiqarildi. Cotton campaign tashkiloti O‘zbekistonga qo‘yilgan taqiqli butunlay bekor qildi. Yevropa Ittifoqi

2024-yilda aholining ish bilan bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, tomorqa va dehqonchilik uchun ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar kambag‘allik darajasini pasaytirishga katta hissa qo‘shgani qayd etildi. Buning natijasida bir yil davomida aholining real daromadi 10,7 foiz o‘tdi. Aholining ish haqidani daromadi esa 2023-yildagiga nisbatan 12,9 foiz ko‘paygani ayon bo‘ldi.

O‘zbekistonga ushbu siyosiy tuzilma davlatlari bozoriga imtiyozli kirib borish imkonini beradigan GSP-tizimini qat’iyon etdi. Milliy mahsulotlarimiz uchun 26 ta yangi bozor ochildi, Yevropaga eksportimiz 5 karra oshib, 1,5 milliard dollarga yetdi”, deya ta’kidlab davlatimiz rahbari nutqida.

Sakkiz-to‘qqiz yil tarix uchun juda qisqa vaqt. Lekin ish puxta reja bilan qilinsa, mohiyat, maqsad aniq bo‘lsa, shu davr ichida ham asrlarga tatigulik o‘zgarishlarga erishsa bo‘ladi. Men hozir yangi O‘zbekiston davrida amalga oshirilayotgan ishlarni shunday deb bilaman. Yuqorida keltirganlarimiz qisqa muddat ichida erishilgan muvaffaqiyatlarga ayrim misollar, xolos. Vaholanki, bunday ishlar soni ham, salmog‘i ham, ahamiyatiyu mazmun-mohiyati ham juda keng. Bular ortidan ilgari imkonsizdek tuyulgan ishlar amalga oshdi. Odamlarning asriy orzulari ushaldi. O‘zbekiston dunyoga, dunyo O‘zbekistonga ochildi.

Ayni paytda O‘zbekistonda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda munosib mehnat bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan dastur ishlab chiqilayotgani ham fikrimiz tasdig‘i. Nega deganda, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ham mehnat sohasida inson qadriini oshirish, barcha fuqarolar uchun adolati va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishdan iboratdir.



Munosib mehnat uchun munosib sharoit

Yangi O‘zbekistonning insonparvar siyosati yana nimalarda namoyon bo‘ladi? Bu, albatta, odamlar bilan ishlash jarayonida, ularga munosib mehnat sharoiti yaratib berishda yaqqol bilinadi. “Inson qadri uchun” tamoyili yangi O‘zbekistondagi ushbu yo‘nalishdagi ishlarda o‘z aksini topgani, kutilganidan a’lo darajada samara berayotgani bilan ahamiyatli. Prezidentimiz ushbu tamoyilni ilgari surar ekan, buning uchun, avvalo, nima qilish kerakligini ham aniq ko‘rsatib berdi. Xususan, davlat idoralari eshiklari xalq uchun, odamlar uchun ochildi.

Nafaqat ochildi, davlat organlari vakillarining o‘zi xalq ichiga kirib bordi. Ularning hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, tanishdi, muloqot qildi, eshitdi, takliflarini tingladi. Ayollar, yoshlar va boshqa ijtimoiy daftarlar yuritildi. “Mahalla yetiligi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Pirovardida nainki hududlardagi kamchiliklarni bartaraf etish choralar ko‘rildi, balki mahallabay, xonadonbay, so‘ng har bir fuqaro bilan individual ishllovchi tizim tufayli yurtimizda ishsizlik, kambag‘allikni kamaytirishda sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga tashlana boshladi. Ya’ni inson qadri yuksalib, har bir ishda uning manfaatini birlamchi vazifa sifatida yuzaga chiqdi. 2024-yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga tushdi. Joriy yil boshiga kelib bu haqda Jahon banki tomonidan ma’lumotlar tarqatildi.

Tahilida yana bir qancha raqamlar ham aks etdi. Ya’ni 2024-yilda aholining ish bilan bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, tomorqa va dehqonchilik uchun ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan

Investor, shuningdek, O‘zbekistonda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar davlatimiz rahbarining o‘z ishiga bo‘lgan buyuk ishonch-e’tiqodi va fidokorona mehnati, vatanimizga cheksiz mehr-muhabbati samarasi ekaniga alohida urg‘u berdi.

choralar kambag‘allik darajasini pasaytirishga katta hissa qo‘shgani qayd etildi. Buning daromadi 10,7 foiz o‘tdi. Aholining ish haqidani daromadi esa 2023-yildagiga nisbatan 12,9 foiz ko‘paygani ayon bo‘ldi.

Shu kabi imkoniyat va shart-sharoitlar tufayli bugungi kunda 6 millionga yaqin aholi o‘zini o‘zi ish bilan band qilib, ro‘zg‘or tebratmoqda. Hozirgi vaqtda odamlar dasturchi, veb-dizayner, hunarmand, taksi haydovchisi, kuryer kabi o‘nlab kasblarda platformali ish bilan bandlik asosida ishlamoqda. Ko‘plab fuqarolar, ayniqsa, xotin-qizlar masofadan turib mehnat qilishni o‘rgandi. Mahallalar drayver sohalarga xizmatlashirilishi evaziga 1,5 million oila o‘z xonadonida ishlab, daromad olmoqda.

Islohot qachonki amalda natija ko‘rsatsa, islohot hisoblanadi. Ya’ni uning samarasi odamlar turmushida namoyon bo‘lib, har kim o‘z mehnatidan manfaat ko‘rsa foydali. Bo‘lmasa u quruq gap sifatida qog‘ozda qolib ketaveradi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar esa bunday emas. Gap aytildimi, biror reja qilindimi, ijrosi, albatta, ta’minlanadi. Bizda har bir ish ana shu qoida asosida bajarilgani tufayli bugun samarasi har jabhada yaqqol sezilmoqda. Jumladan, 2023-yildan birinchi marta minimal iste’mol xarajatlarini ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda pensiya, nafaqa va ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lmisligi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Iqtisodiyotdagi barqaror o‘sish aholi turmush farovonligini shunga moslashtirishni taqozo etadi. Shu bois, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori har yili ko‘paytirib borilaypti.

Prezidentimiz uchrashuvda ushbu masalaga ham alohida e’tibor qaratib, bu



boradagi ishlarni yanada takomillashtirish zarurligini qayd etdi. “Ochiq aytish kerak, bu masalalar ko‘pincha bir tomonlama, ya’ni davlat idoralarning hisob-kitobi va taklifi bilan hal qilinmoqda. Shu bois, kelgusi yildan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga oid qonunchilik hujjatlari loyihasini ishlab chiqishga Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha uch tomonlama respublika komissiyasini ham jalb qilsak, o‘ylaymanki, bu juda to‘g‘ri bo‘ladi. Bu — mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda xodimlar manfaatini kafolati himoya qilish bo‘yicha yangicha yondashuv bo‘ladi”, dedi davlatimiz rahbari.

Nutqda inson qadri, uning hayot sifati faqat ish haqi bilan emas, balki ijtimoiy muhit bilan ham belgilanishi aytiladi. Buning uchun xodimlarni uy-joy, sifati ta’lim, tibbiyot va transport xizmatlari bilan kafolati ta’minlab, eng muhim hayotiyohtiylariga yetadigan daromad topishiga sharoit yaratib berish zarurligi qayd etildi. Bu yangi O‘zbekistonda har bir ishchi, ya’ni har bir fuqaro, har bir oila sifati hayot kechirishini ta’minlashga nechog‘liq e’tibor qaratilayotganiga yana bir isbot bo‘ldi. Binobarin, sifati hayot sifati ta’lim, sifati ta’lim esa yorqin kelajak degani. Bunday ish tutumi ko‘p yillar ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan shaxs, ilm ahli vakili sifatida meni yanada ruhlantirdi, albatta.

Ilm — kelajakka eng yaxshi sarmoya

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo aholisining 25 foizdan ko‘prog‘i yoshlar. O‘zbekistonda esa yoshlar jami aholining yarmidan ziyodini tashkil etadi. Bu ayni paytda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya, ilimga har qachongidan yuqori darajada e’tibor qarash zarurligini anglatadi. Shunday bo‘laypti ham. Chunki so‘nggi yillardagi islohotlar maqsadi ayni shu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarga yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Oxirgi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yoshlarib, 40 yoshgacha bo‘lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshgani o‘zining eng muhim jihatlardan biri inson kapitali ekaniga yaqqol misol bo‘ladi. Aynan inson kapitaliga ega bo‘lish va undan samarali foydalanish mamlakat mavqeyini anglatadi. O‘zbekiston bozoriga har yili bir milliondan ortiq mehnat kuchi kirib kelishini inobatga olsak, bu biz uchun o‘ta muhim va dolzarb vazifadir. Shu jihatdan olganda, bugungi kunda yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida bajarilayotgan ishlar diqqatga sazovor. Jumladan, o‘tgan yili yoshlarimiz “TOP-500” talik oliyog‘hlariga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egalladi. Bugungi kunda 30 yigit-qiz dunyodagi “TOP-10”, 500 nafari “TOP-100” va 1 ming 500 nafari “TOP-300”dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda. Yoshlarimizning boshqa sohalarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlari kam emas. Shulardan kelib chiqib aytish mumkiniki, davlatimiz

rahbarining yoshlarga qaratga “Birinci va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar — yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz”, deya aytgan gaplari bugungi siyosatimizga nechog‘liq mos kelishini tushunish qiyin emas. Ya’ni yoshlarga sifati ta’lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o‘rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashish davlatimizning asosiy vazifasiga aylangan. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar to‘xtamasligi, izchil davom ettirilishi maqsadi Prezidentimizning joriy yil Yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan muloqotda aytgan fikrlarida yana bir karra o‘z aksini topdi. Xususan, milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o‘quvchi tanlanib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi nufuzli oliyog‘hlariga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo‘ladi.

Shuningdek, endi “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan “TOP-300” talik oliyog‘hga kirganlarning o‘qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu orqali, eng avvalo, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika, energetika, transport, urbanizatsiya, arxitektura, qurilish, qishloq hamda suv xo‘jaligi kabi drayver sohalari uchun kvotalar oshiriladi. “TOP-300” talik oliyog‘hga kirgan yoshlarga banklar tomonidan 20 ming dollargacha imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Sun’iy intellekti rivojlantirish bo‘yicha bank-moliya, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va energetika ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, 100 ta loyihaga amalga oshiriladi. “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” dasturi ishga tushiriladi.

Oliyog‘hlar o‘rtasida startaplar bo‘yicha har yili “Eng yaxshi kreativ g‘oya” tanlovi o‘tkazilib, g‘oliblarga oliyog‘h jamg‘armasidan 300 million so‘mgacha grant beriladi.

“Yangi O‘zbekistonning yoshlarga oid siyosatini xalqaro hamjamiyat ham keng e’tirof etayotgani esa yanada quvonarli. Ya’ni shu davr ichida O‘zbekiston BMTning “Yoshlar — 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz bu borada eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davlat deb topildi.

Bugun O‘zbekiston yoshlariga yangi tarix yaratadigan oltin avlod nisbati berilayotgani bejiz emas. Chunki yaratilayotgan sharoit, berilayotgan imkoniyat, taqdim etilayotgan qulaylik ulami shunday avlod bo‘lishga undaydi va amalda ko‘zlangan maqsadga erishil-yapti ham. Mana shunisi, ya’ni islohotlarga munosib bo‘lish muhim. Bu katta mas’uliyat ham. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo‘nalishlarni egallab, ancha ilgari lab ketaypti. Ularni qo‘llab-quvvatlasak, sifati ta’lim berib, sharoit yaratdik, bundan ham katta natijalarga erishadi.

Mamlakat taraqqiyoti shu yurtda unib-o‘sgan insonlarga bog‘liq. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistonda zamonaviy ta’limga qaratilayotgan e’tibor, ilm ahliga ehtirom shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqobatli dunyoga raqobatli, malakali, irodasi mustahkam, yangi davrga mos kadrlarni yuzaga chiqarishga xizmat qilayotgani bilan yanada katta ahamiyat kasb etadi. Bu yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida kechayotgan islohotlarning eng muhim jihatlardan biri. So‘nggi sakkiz yilda odamlarning haq-huquqini himoya qilish, munosib ish joyi bilan ta’minlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini, yangi oilalar genofondini yaxshilash, yoshlarning ilm olishini ta’minlashga qaratilgan ulkan ishlar buning yaqqol tasdig‘i. Natijada har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarmoqda.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvdagi nutqida “Inson qadri uchun” degan ezu g‘oya bundan buyon ham yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishini alohida ta’kidlab. Bundan ko‘rinadiki, biz ko‘zlangan marra sari yanada ildam, dadil qadam tashlayveramiz. Bu yo‘ldagi har bir odim mamlakatimiz taraqqiyoti va odamlar hayotidagi o‘zgarishlarda o‘z aksini topaveradi.

GLOBAL TASHABBUSLAR:

JAHON INTEGRATSIYASI BILAN ISLOHOTLAR HAMOHANGLIGI

Muzaffar KOMILOV,
O‘zbekiston xalqaro
islomshunoslik
akademiyasi rektori,
Xalqaro ICESCO tashkiloti Ijroi
kengashining a‘zosi

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar jarayonida transport va logistika sohasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan Transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi doirasida qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yagona transport siyosati konsepsiyasi ishlab chiqilib, transport tizimini raqamlashtirish va ekologik talablarga moslashtirish ishlari boshlandi. Transport-logistika va yangi mintaqalararo savdo yo‘llarini to‘liq ochish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, Markaziy Osiyo mamlakatlarini Xitoy, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bozorlari bilan bog‘laydi.

O‘zbekiston qadimdan sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lgan. Bu borada uning hududidan o‘tgan Buyuk ipak yo‘li beqiyos o‘rin tutgan. Turli mintaqalardagi xalqlarni o‘zaro bog‘lagan qadimiy yo‘l nafaqat savdo-iqtisodiy, balki davlatlar va qit‘alar o‘rtasidagi axboriy va madaniy muloqotni ta‘minlagan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda transport infratuzilmasi va xizmat ko‘rsatish tizimi jadal rivojlanmoqda. Masalan, 2020-yilda yo‘lovchi tashish hajmi 5,3 milliard kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 6,9 milliardga yetdi. Temir yo‘l tarmoqlari uzunligi 4669 kilometrdan 4850 kilometr gacha uzaydi, avtomobil yo‘llari esa umumiy hisobda 42 ming kilometrdan ortiqni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatda ichki va xalqaro transport aloqalari kengayishi, xususan, tashqi savdo yo‘nalishlarida logistika xarajatini qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Transport infratuzilmasi rivojlanishi, o‘z navbatida, turizm sohasida ham yuqori o‘sinh sur‘atini ta‘minlagan. 2020-yilda mamlakatga bor-yo‘g‘i 1,5 million sayyoh kelgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 10,2 millionga yetdi, ya‘ni besh yilda qariyb yetti barobar o‘tdi. Turizmdan tushadigan daromad 679 million AQSH dollaridan 3,5 milliard dollargacha o‘rtib, O‘zbekistonni mintaqadagi yetakchi turizm davlatlaridan biriga aylantirmoqda.

Eng diqqatga sazovor jihati, bu sayyohlarning asosiy qismi ziyorat uchun keladi. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Termiz, Xiva, Marg‘ilon, Toshkent

kabi shaharlar islom madaniyatining markazlari sifatida butun dunyoga dong taratgan. Islom ilmi va ma‘rifatini yuksak cho‘qqiga ko‘targan buyuk ajdodlarimizning maqbaralari muqaddas ziyoratgohlarga aylantirilgan. Tarixning turli davrlarida, ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida buyuk allomalarning yodgorlik majmualari barpo etilgan.

O‘tgan davrda ulug‘ bobolarimizning ma‘naviy va ilmiy merosini tiklash, keng tarq‘ib etish, tavallud sanalarini xalqaro miqyosda nishonlash, ziyoratgohlarini har tomonlama obod qilish bo‘yicha ulkan ishlar qilindi. Shu o‘rinda yurtimizdagi ulug‘vor ziyoratgoh — Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi misli ko‘rilmagan darajada obod bo‘ldi. Ushbu maskandagi go‘zal va fayzli manzarani ko‘rib, bugun Xartang qishlog‘ini qishloq deysishga ham til bormaydi. Bu ziyoratgoh butun musulmon olamining e‘tiboridagi har tomonlama obod maskanga aylandi.

Mamlakatimizdagi bunday o‘nlab majmualar, jumladan, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoni, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Imom Moturiy, Xoja Ahror valiy, Ahmad Farg‘oniy, Mahmud Zamaxshariy va yana boshqa ko‘plab ulug‘ ajdodlarimizning ziyoratgohlari obod qilinib, meroslarini o‘rganish va xotirasini abadiylashtirish kabi xayrli va savobli ishlar qilindi. Shuningdek, Samarqanddagi Shohi Zinda, Termizdagi Sulton Saodat, Hakim Termiziy, Imom Termiziy, Shahrisabzdagi Dorus saodat, Qarshidagi Ko‘kgumbaz, Xivadagi Ichan qal‘a, Toshkentdagi Hazrati Imom kabi tarixiy komplekslarni ta‘mirlash, yangidan obod qilish ham yuksak darajada amalga oshirilgan.

Toshkent shahridagi Islom sivilizatsiyasi markazi esa bu jarayonning mantiqiy davomidir. Ushbu markaz faoliyati ilmiy-ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lish barobarida xorijiy olimlar va ziyoratchilar tashrifini ham keskin oshirmoqda. Undagi elektron arxivlar, qo‘lyozmalar fondi, interaktiv muzeylar va ko‘rgazmalar nafaqat musulmon mamlakatlaridan, balki Yevropa va Osiyodan kelayotgan mehmonlar uchun ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu esa Toshkentni jahon ma‘naviy turizmi xaritasidagi muhim nuqtaga aylantirmoqda.

Bugun Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Qo‘qon va Marg‘ilon kabi tarixiy shaharlar nafaqat ma‘naviy merosning beqiyos xazinalari, balki iqtisodiy va transport markazlari sifatida ham qayta tiklanmoqda. Xususan, Sharq va G‘arbni bog‘lagan yagona logistika, transport va savdo tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunda asosiy ustuvor yo‘nalishlar etib temir yo‘l yo‘laklari (Xitoy — Qozog‘iston — O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya — Yevropa), avtomobil va havo yo‘llari hamda logistika markazlari tarmoqlari belgilanmoqda.

Transport-logistika infratuzilmasining asosiy ustuni hisoblangan temir yo‘llarni jahon darajasiga chiqarish borasida qator yirik loyihalar amalga oshirilganini alohida qayd etish kerak. Xususan, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li mintaqaviy savdo va tranzitning yangi bosqichi sifatida qayd etilmoqda. Shu ma‘noda, mazkur yo‘l qurilishi barchaga foyda keltiradi. O‘zaro savdo hajmini oshiradi, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq yangi

Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkonini beruvchi yana bir muhim loyiha ekanini ham ta‘kidlash lozim. Temir yo‘l bilan bir qatorda infrastrukturaning “kichik qon tomirlari” bo‘lgan avtomobil yo‘llari sohasida ham strategik loyiha va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Zero, bu boradagi islohotlar o‘laroq, yurtimiz orqali o‘tayotgan avtomobil yo‘llari mahalliy va mintaqaviy logistikada eng faol segmentga aylanib ulgurdi. “Toshkent



ish joylarini ochadi, yangi sayyohlarni jalb etadi. Ushbu loyihaning istiqbolli ekanini birinchi marta Markaziy Osiyodagi avtotashuvchilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri Xitoyga chiqish imkonini bergan “Qashg‘ar — Irkeshtom — O‘sh — Andijon — Toshkent” avtoyo‘lagi ham ko‘rsatib berdi.

Davlatimiz rahbari har qanday tashabbusni ko‘p vektorli va diversifikatsiya tamoyili orqali ilgari suradi. Bunday yondashuv islohotlarni bir tomonlama va xalqaro maydondagi muhitga bog‘liq bo‘lib qolishdan asraydi. Xususan, bu borada yana bir loyiha — Transkaspий xalqaro transport yo‘lagi Yevropa bilan bog‘lanishning strategik yo‘li sifatida ko‘rilayotganini qayd etish lozim. Bu loyiha to‘liq ishga tushishi orqali butun mintaqa darajasida eksport va import narxini arzonlashtirish, yuk tashish tezligini oshirish, transport xarajatini kamaytirish uchun juda qulay muhit shakllanadi.

Diversifikatsiya haqida so‘z borarkan, “Toshkent — Termiz — Mozori Sharif — Hirot” temir yo‘li Afg‘oniston orqali

— Samarqand — Buxoro — Turkmanboshi” magistral yo‘li aynan Transkaspий transport yo‘lagining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shuningdek, zamonaviy qiyofa kasb etayotgan “O‘zbekiston — Tojikiston — Xitoy” avtomobil yo‘li ham mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni faollashtirmoqda.

Yangi davr munosabatlari va yo‘llari haqida gap ketar ekan, aviatsiya va havo yo‘llarisiz bu munosabatlar taraqqiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi, albatta. Zero, havo yo‘llari yuqori texnologiyali, tezkor va strategik aloqa vositasi sifati dunyo iqtisodining eng muhim bo‘g‘iniga aylanib ulgurgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida havo yo‘llari yangi Buyuk ipak yo‘lining tezkor va strategik tarmog‘i sifatida islohotlarning eng muhim yo‘nalishi etib belgilangan.

Zamonaviy logistika tizimida havo transporti yuqori qiymatli tovarlar va tez yetkazib berish talablarini ta‘minlashda asosiy vositadir. Yurtimizda oxirgi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Namangan aeroportlari

rekonstruksiya qilindi. Ular nafaqat yo‘lovchi tashish, balki kargo xizmatlarini ko‘rsatuvchi zamonaviy markazlarga aylanmoqda. “Uzbekistan Airways Cargo” faoliyati kengayib, mamlakatni mintaqaviy havo logistika xabiga aylantirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yildi. Binobarin, 2025-yil 15-oktabrda tamol toshi qo‘yilgan Yangi Toshkent xalqaro aeroporti ana shu katta rejalarining amaliy ifodasi sanaladi. Ushbu tashabbus nafaqat transport-logistika masalasini hal etish, balki O‘zbekistonni mintaqaviy aviaxabga aylantirish yo‘lida muhim qadam bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Bu infratuzilma orqali qadimiy tarix, madaniy aloqalar, an‘anaviy savdo-iqtisodiy munosabatlari, xalqlar o‘rtasidagi yaqinlik va uzilgan rishtalar qayta tiklanadi.

Yangi Toshkent xalqaro aeroportining qurilishi loyihasi Saudiya Arabistonining Vision Invest, Yaponiyaning Sojitz, Janubiy Koreyaning Incheon kompaniyalari qatnashmoqda. Loyiha borasidagi asosiy vazifa O‘zbekistonni mintaqaviy aviaxabga aylantirish va transport infratuzilmasi integratsiyasini kuchaytirishdir.

Aviatsiya kompleksining ikki bosqichda qurilishi belgilandi. Birinchi bosqichda 2,5 milliard AQSH dollari sarmoya bilan terminal qurilishi rejalashtirilgan. Bu bilan yillik 20 million yo‘lovchi va 129 ming tonna yuk tashish imkonini ta‘minlanadi. Aeroportni ICAO xalqaro

kutilmoqda. Mazkur yirik loyiha tufayli mamlakat iqtisodiyotiga 27 milliard AQSH dollari miqdorida investisiya kirib kelmoqda. Bu esa xizmat ko‘rsatish, turizm va sanoat sektorlari faoliyatini yanada jonlantirib, minglab yangi ish o‘rinlari ochilishiga sabab bo‘ladi.

Saudiya Arabistoni, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi kuchli hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan loyiha O‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshiradi. Yangi strategik sheriklar bilan aloqalar yaxshilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan esa aholi, ayniqsa, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Ko‘p sonli loyihalar va infratuzilma qurilishlari tufayli mehnat bozorida yuz minglab ish o‘rni va xizmatlar ochiladi. Bu loyihalarning to‘la hajmda amalga oshirilishi mamlakatimizda turizmning yanada rivojlanishi va madaniy almashuvning faollashuviga olib keladi. Hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish sohalari ko‘proq daromad ko‘radi.

Mazkur global tashabbus va islohotlar mahalliy darajada ham davom ettirilmoqda. Zero, bu ulkan islohotlar, avvalo, xalqimiz hayotini yaxshilashga xizmat qilishi zarurligi belgilangan.

Aholi soni ortib, hududi kengayib borayotgan Toshkent shahrida transport tizimini takomillashtirish va yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish dolzarb masaladir. Shu bois, hozir poytaxtimizda zamonaviy yo‘llar, ko‘priklar, piyodalar o‘tish joylari barpo etilmoqda, mavjudlari esa zamon talablariga mos ravishda rekonstruksiya qilinmoqda.

Shu yo‘nalishdagi yirik loyihalardan biri Shota Rustaveli ko‘chasining Mirobod ko‘chasidan Choshtepa ko‘chasigacha bo‘lgan qariyb 7 kilometrli qismida qilingan rekonstruksiya ishlaridir. Mazkur yo‘l poytaxtning bir nechta tumanlarini bog‘laydigan muhim transport arteriyasi bo‘lib, uning qayta qurilishi nafaqat yo‘lovchilar, balki haydovchilar uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Yangi tizimga ko‘ra, yo‘l 10 ta qatnov qismidan iborat bo‘lib, shularning 6 tasida avtomobillar, 2 tasida avtobuslar harakatlanadi. Qolgan 2 yo‘lak esa vaqtinchalik to‘xtash uchun mo‘ljallangan.

Eng muhimi, ko‘chada ilk bor zamonaviy BRT tizimi joriy etildi. Bu jamoat transporti uchun maxsus ajratilgan yo‘nalish bo‘lib, unda avtobuslar tez va xavfsiz harakatlanadi. Prezidentimiz ushbu loyihaning samaradorligini shaxsan ko‘zdan kechirdi. Avtobusda yurib, yo‘lovchilar bilan suhbatlashdi va jamoat transporti tizimidagi qulayliklarni yuqori baholadi.

Rekonstruksiya loyihasi umumiy qiymati 19,2 million dollar bo‘lib, natijada yo‘lovchi tashish hajmi soatiga 2500 dan 6000 gacha oshdi. Yo‘lning o‘tkazuvchanligi ham sutkasiga 40 ming avtomobilga yetkazildi. Shu bilan birga, harakat tezligi soatiga 23 kilometrdan 30 kilometr gacha oshirildi.

Mutaxassislar fikricha, mazkur loyiha tufayli transport tizimi samaradorligi oshishi bilan birga xavfsizlik darajasi ham sezilarli darajada yaxshilangan, yo‘l-transport hodisalari kamaygan.

Infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport tizimini raqamlashtirish va logistik xablar yaratish orqali O‘zbekiston iqtisodiy salohiyatini to‘liq namoyon etadi. Yangi Buyuk ipak yo‘li nafaqat tovarlar aylanmasi, balki xalqlar do‘stligi, madaniy va ma‘naviy yaqinlik ramzi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir manzil

Aholi ishonchini oqlash oson emas. **Buni Gulchehra opa mahalla raisligiga saylangan kuniyoq his qilgandir. Boshida ancha ikkilandi. Axir ko‘pchilikka bosh bo‘lishning o‘zi bo‘lmaydi. Turli tabiatli odamlar bor. Ular bilan muomala qilish murakkab. Nizolarga yechim topish kerak. Ayrim oilalarga maslahat berib, gohida yaxshi, ba’zida qattiq gapirishga to‘g‘ri keladi. Yoshu qari, avvalo, mahalla raisiga tayanadi. Shunday yuksak mas’uliyatni zimmaga olish oson emasligi haqida ko‘p o‘ylaydi. Ammo shashitidan qaytmadi. “Aholi ishonch bildirdimi, albatta, oqlayman”, deya ishga kirishadi. Oldiga: “Istiqlol mahallasini nafaqat Muborak tumanida, balki viloyatda eng namunali hududga aylantiraman”, degan maqsad qo‘yib, harakatni boshlab yubordi.**

Avvaliga ayol boshi bilan hududni eplay olmasligi haqida gapirganlar bo‘ldi. Ayrimlar o‘zicha vaqtda bu ishni boshqaga topshirish haqida maslahat ham berdi. Lekin Gulchehra opa hech biriga e‘tibor qaratmadi. O‘z tajribasiga tayanagan holda ish tutdi.

Har kuni erta turib, tun qorong‘usiga qadar mahallani o‘rgandi. Odamlarga yaqin borib, ularga quloq soldi. Dardini eshitishga intildi. Qaysi xonadonda yetishmovchilik bo‘lsa, bartaraf etishga kirishdi. O‘rganishlari natijasida ishsizlik ko‘pligi, buning oqibatida

“PREZIDENTIMIZGA BERGAN VA’DAMNI BAJARDIM”

MUBORAK TUMANIDAGI MAHALLANING YARMI “YASHIL” ENERGIYAGA O‘TDI

kambag‘allik kelib chiqayotganini angladi. Odamlarda boqimandalik kayfiyati yuqori ekanidan afsuslandi. Shukrki, bunday masalalarni hal etish uchun davlatimiz barcha imkoniyatlarni yaratib bergan. Qahramonimiz o‘sha imkoniyatlarni ishga soldi.

“Mahalla yetilligi” bilan xonadonlarni xatlovdan o‘tkazdi. Jarayonda har bir fuqaro bilan suhbatlashdi. Ular bilan yaqindan tanishdi, yashash tarzi, daromad manbai bilan qiziqdi. Achinarlisi, ko‘p oilalar moddiy ta‘minot yetarli bo‘lsa-da, ijtimoiy yordam olarкан. Buning oldini olishga kirishdi. Haqiqiy kam ta‘minlanganlar ijtimoiy ta‘minot olishiga imkon berdi. Natijada bunday yordam oluvchining 260 nafaridan atigi 46 nafari qoldi. Kim ham shunchaki kelib turgan puldan voz kechadi, deysiz? Ta‘minotdan bebahra qolganlar

noroz bo‘lib, shikoyat qilishni ko‘paytirdi. Endi uyaliq qoladi deb o‘ylashgandi. Ammo opa har birining daromad manbaini ko‘rsatib, shikoyatchilarning yuzini shuvut qildi. Shundan so‘ng boshqa birov ariza ko‘tarib chopmad. Balki vaqtini mehnat qilishga sarflaydigan bo‘ldi.

Keyingi reja kambag‘allikni qisqartirish edi. Avvalo, mahallani “yashil” energiyaga o‘tkazish maqsad qilindi. Buni o‘z uyidan boshladi. Boshida 2 kilovattli quyosh paneli o‘rnatdi. Ikki-uch oy sinovdan o‘tkazdi. Foydasini bilgach, 5 kilovattli panel o‘rnatdi. Endi xonadoni to‘liq

quyosh energiyasidan ta‘minlana boshladi. Oy yakuniga borib hisoblab ko‘rarkan, anchagina foyda ko‘rgani ma‘lum bo‘ldi. Keyin qo‘shnisi, boshqalarga buning afzalliklarini targ‘ib qildi. Yaxshi gap tez tarqalib, ko‘pchilikka qiziqish paydo bo‘ldi. Asta-sekin aholi quyosh paneli o‘rnata boshladi. O‘z iste‘molidan ortganini davlatga sotib, daromad olish esa ko‘pchilikka ma‘quul keldi.

— Mahallamizda 568 ta namunali uy bor, — deydi Gulchehra Jo‘rayeva. — Dastlab shu xonadonlarda quyoshdan energiya olishga qiziqish bo‘ldi. Keyin boshqalar ham o‘rnata boshladi. Hozir 50 foizga yaqin xonadonda quyosh paneli bor. Joriy yil yakuniga qadar ular safi yana ortadi. Bundan tashqari, bir qancha tadbirkorlik obyektlari “yashil” energiyadan foydalanyapti.

Jumladan, ishbilarmon O‘lmas Oytug‘diyev ham yaqinda quyosh paneli o‘rnatdi.

— Ilgari savdo do‘konim hamda xonadonimga sarflanadigan elektr uchun bir oyda besh yuz ming so‘mdan ortiq pul to‘lardim, — deydi O‘. Oytug‘diyev. — Yaqinda mahalla faollari maslahati bilan 15 kilovattli quyosh paneli o‘rnatdim. Hisoblab ko‘rsam, ancha foydali bo‘lmoqda. Hozir xarajatlardan qutulish bilan birga ortiqcha energiyani sotib, qo‘shimcha daromad topyapman.

Ayni kunlarda Istiqlol mahallasi ko‘chalari bo‘ylab yurgan kishi har ikki unyning birida quyosh paneli o‘rnatilganini ko‘radi. Gulchehra opaning ta‘kidlashicha, kelgusi yilda “quyoshli xonadon”lar yanada ko‘payadi.

— Davlatimiz rahbari joriy yil viloyatimizga tashrif chog‘ida fuqarolar bilan yig‘ilish o‘tkazgandi, — deydi Gulchehra opa. — Unda qatnashib, Prezidentimizga yil yakuniga qadar mahallamizda “yashil” energiyadan foydalanuvchilar sonini 50 foizga yetkazaman deya va da bergandim. Aytganimdek, bugun bu natijaga erishdik. Bu orqali nafaqat energiya tejamonligiga, balki oilalar daromadli bo‘lishiga zamin yaratdik. Natijada kambag‘allik ham kamaydi. Hozir mahallamizda kambag‘al oilalar qolmadi hisob. Ishsizlik deyarli bartaraf etildi. Buning uchun “mahalla yetilligi” bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilyapmiz. Maqsadimiz — aholining farovon turmush kechirishiga erishish.

Gulchehra opaning tinib-tinchimasligi sabab bugun hududda birotora to‘morqaning bo‘sh yotganini ko‘rmaysiz. Har bir oila boshlig‘i bilan ijtimoiy shartnoma tuzib, natijasini o‘zi kuzatib bormoqda. Agar kimdir yeridan unumli foydalanmaydigan bo‘lsa, chora ko‘rib, mehnatsevarlikka chorlab kelmoqda. Gohida o‘zi bosh bo‘lib yer ag‘darib, ekishni o‘rgatadi. Kimdir ko‘chada bekorch o‘tirganini ko‘rsa, shu zahoti dakk eshitadi. Muhimi, yetakchi opaning tashabbusi bilan mahalla ahlining turmushi yaxshilanib, obod xonadonlar soni tobora ko‘paymoqda.

Akbar RAHMONOV,

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

